



## MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA INSTITUTIONALLASHTIRILGAN VA INSTITUTIONALLASHTIRILMAGAN TA'LIM TURLARIDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Joldasova K. J.*

*A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti tadqiqotchisi*

**Tayanch so'zlar:** individual malaka oshirish, informal ta'lim, malaka oshirish jarayoni, tadqiqot jarayoni, metodik manba, pedagogik-psixologik asos, andragogik manbalar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tahlil, kuzatish, matematik-statistik qayta ishlash usullari, takomillashtirish shakllari.

**Ключевые слова:** индивидуальное повышение квалификации, неформальное образование, процесс повышения квалификации, исследовательский процесс, методический ресурс, педагогико-психологическая основа, андрагогические ресурсы, нормативно-правовые документы, анализ, наблюдение, методы математико-статистической обработки, формы совершенствования.

**Key words:** individual professional development, non-formal education, professional development process, research process, methodological resource, pedagogical and psychological basis, andragogical resources, regulatory and legal documents, analysis, observation, methods of mathematical and statistical processing, forms of improvement.

Jahonning ilg'or ta'lim muassasalari o'quv jarayonida mobil ta'lim (Personal digital assistant) texnologiyalaridan foydalanish, elektron mikro resurslarni interaktiv instrumentlar asosida tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, ta'limning institutsionallashtirilmagan turidan keng foydalanish orqali malaka oshirish jarayonida informal ta'lim yondashuvini qo'llash va malaka oshirishni kunlik ehtiyojlarga aylantirish imkonini beradigan usullarni tatbiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

So'ngi yillarda jahon standartlari va talablari asosida ta'limning ilg'or usullarini amaliyotga joriy etish, ta'lim sohasini raqamlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash, raqobatbardoshlik muhitini yaratish kabi



zamonaviy omillar o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonini tashkil etishning bugungi kundagi holatini qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda.

Bu omillar, o'z navbatida, umumta'lim maktablarida raqamli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishga mas'ul bo'lgan informatika fani o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish, bu yo'nalishdagi yuzaga kelayotgan zamonaviy muammolarni hal qilishga yordam beradigan yangi yondashuvlarni izlash masalasining muhimligini anglatadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda umumta'lim maktab o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonini raqamlashtirish, masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalarini joriy etish, "davlat organlari xodimlari malakasini oshirish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan va xodimlarning malakasini baholashning yangi mexanizmlaridan foydalangan holda masofadan o'qitish", "geografik joylashuvidan qat'iy nazar, ... ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarini yanada rivojlantirish" [1] ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu umumta'lim maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayoniga yangi o'qitish texnologiyalarini joriy etishga yordam beradi.

Hozirgi tezlik bilan rivojlanayotgan davrda avvalo o'qituvchilar o'z salohiyatini o'stirishi va o'ziga alohida majburiyat yuklab, zamonaviy yoshlarga zamonaviy- samarali bilim berish uchun ta'limga alohida nazar bilan kirishishi lozim. O'qituvchilar har kuni yangilanib va o'zgarib turadigan turli xil ma'lumotlarning cheksiz oqimi bilan tavsiflangan zamonaviy ijtimoiy vaziyatga kirib, avval olingan bilimlarning eskirishi va kasbiy malakasini tezkor oshirish zarurati, birinchi navbatda, kasbiy charchash bilan dush kelishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ularga malaka oshirish jarayonida "o'zini-o'zi anglash", "o'zini-o'zi qurish", "o'zining malaka oshirish yo'lini o'zi anglash" da yuzaga keladigan bir qator muammolarni qayd etish mumkin.

Birinchi muammo sifatida institutsionallashtirilgan malaka oshirish o'qituvchining kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojini qisman qondirishi mumkinligini ko'rish mumkin. Sababi, yangi chiqqan raqamli texnologiyalarning xususiyatlarini o'quvchilarga o'rgatishda avval o'qituvchining o'zi uni mukammal o'zlashtirib olgan bo'lishi mumkin.

Ekkinchi muammo sifatida institutsionallashtirilgan malaka oshirish o'qituvchining nafaqat kasbiy jihatdan, balki shaxsiy jihatdan o'sishini to'liq ta'minlamasligini ko'ramiz. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy insonlar ma'naviy qadriyatlarni tobora ko'proq anglash va o'zlarining hayotiy munosabatlarini mustaqil ravishda – kundalik hayot jarayonida –



institutsionallashtirilgan malaka oshirish doirasidan tashqarida yaratilishi nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda maktablarda o'quvchilarga raqamlashtirilgan texnologiyalar xususiyatlarini o'rgatishga mas'ul bo'lgan informatika o'qituvchilarining samarali malaka oshirishi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb muammolar hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, jahonda ijtimoiy – iqtisodiy sohalarni jadal raqamlashtirish va hayotda raqamli texnologiyalar asosida ishlaydigan zamonaviy vositalardan foydalanishning amaliy jihatdan ustuvorligi oshib boraberishi hamda bular kelgusida yanada takomillashib borayotganligi har bir insonning kasbiy va hayotiy munosabatlari, aloqalarini ta'minlashda muhim o'rinni egallab borishiga shubha yo'q.

Shuni ta'kidlash joyizki, bugungi kunda har qanday o'qituvchining imkoniyati uning bilim va ko'nikmalarining ustunligiga bog'liq hisoblanadi, shuning uchun o'z kasbiy rivojlanishiga sarmoya kiritish ularning raqobatbardoshligini oshirishi va o'z salohiyatini maksimal darajada oshirishga imkon beradi.

Mavjud adabiyotlar tahlil qilinganda, tarixda o'qituvchilarning butun kasbiy faoliyati davomida muntazam malaka oshirishiga katta ahamiyat berilgan, faqat so'nggi qirq yil ichida jahonda ta'limning institutsionallashtirilmagan yondashuvida kattalar hayotining rivojlanishidagi roli haqida qizg'in bahslar boshlanganligini ko'rish mumkin. Sababi, bugungi kunda o'qituvchilar faoliyatiga oid yangi "turli xil ta'lim va kognitiv faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan axborot resurslari" [2; 18 –b.] soni ortib bormoqda.

Ta'lim siyosatini amalga oshirishda uzluksiz ta'limni rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan agentligi (YuNESKO) ta'rifiga ko'ra, umrbod ta'lim yoki butun umr davomida ta'lim har qanday yoshdagi odamlarning har qanday sharoitda (oilalar, maktab, mahalliy, jamoa, ish joyi) olib boriladigan ta'lim faoliyatini tavsiflaydi. Ta'lim ehtiyojlarining keng doirasini qondirish va turli xil ta'lim turlarini (formal, noformal, informal) o'z ichiga oladi [3]. Noformal va informal ta'lim ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Hozirgi vaqtda zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, ta'lim sifatini oshirishga yangi yondashuvlar izlash zarurati tug'iladi. Tayorlangan va bilimli shaxsni shakllantirish bilan bir qatorda, ijtimoiy muhitning doimiy o'zgaruvchanligi sharoitida mutaxassisni faoliyatga tayyorlash vazifasi ham dolzarbdir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bilim tobora jamiyat taraqqiyotining asosiga aylanib borayotgani, XXI asrda



insoniyatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning zarur vositasi ekanligi davlat siyosati darajasida eʼtirof etilgan [4; 158-b.].

Umuman olganda, oʻqituvchilarning kasbiy mahoratiga jiddiy tahdid sifatida taʼlim muhitidagi oʻzgarishlar va bu oʻzgarishlarning tezligiga moslasha olmaslikni qayd etish mumkin. Shuning uchun uzliksiz taʼlim – bugungi jadal oʻzgaruvchan davrda oʻqituvchining tezkor kasbiy rivojlanishi, raqobatbardoshligi va professional harakatchanligining kafolati hisoblanadi. Oʻqituvchilarning hayotiy munosabatlari va kasbiy rivojlanishining zamon talablariga mos boʻlishiga oid ehtiyojlarni qondirishga qodir boʻlgan yondashuvlarning biri institutsionallashtirilmagan malaka oshirish ekanligini hisobga olish lozim, bu esa oʻz navbatida butun umr davomida malaka oshirishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-6079-son Farmoni. – Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2020 y., 40-son, 443-modda.

2. Кушцова И. А. Современные медиа как средство неформального образования в сфере искусства: возможности и риски / И. А. Кушцова // Медиа. Информация. Коммуникация. [ Электронный ресурс] – 2021. - Т. 36, № 2.

3. Lifelong learning/UNESCO Institute for Lifelong Learning Technical Note. URL: [https:// uil.unesco.org/fileadmin/keydocuments/LifelongLearning/en/UNESCO\\_Tech\\_NotesLLL.pdf](https://uil.unesco.org/fileadmin/keydocuments/LifelongLearning/en/UNESCO_Tech_NotesLLL.pdf).

4. Мухлаева Т.В., “Международный опыт неформального образования взрослых /Т. В. Мухлаева//Человек и образование.– 2012. № 4{25}.– С. 158-162.

#### РЕЗИМЕ

Mazkur maqolada informal taʼlim yondashuviga asoslangan malaka oshirish jarayoni tinglovchilarning kurslarni oʻzlashtirish darajasini reytinglashtirish natijasida aniqlangan zaruriy didaktik ehtiyojlarga koʻra individual malaka oshirish trayektoriyasini shakllantirish imkoniyatini yaratib berish orqali takomillashtirildi.

#### РЕЗИМЕ

В данной статье процесс обучения на основе подхода неформального образования усовершенствован за счет создания возможности формирования индивидуальной траектории обучения согласно необходимым дидактическим потребностям, определяемым в результате рейтингования уровня освоения курсов.

#### SUMMARY

In this article, the learning process based on the non-formal education approach is improved by creating the possibility of forming an individual learning trajectory according to the necessary didactic needs determined as a result of rating the level of course mastery.